

IJTIMOYIY-MADANIY FAOLIYATNING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Baxromjon Boqijonovich Inatullayev
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatning ma'naviy rivojlanish mexanizmi bo'lgan ijtimoiy-madaniy faoliyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi yoritilgan bo'lib, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari tarixiy manbalar asosida atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy faoliyat, jamiyat, madaniyat, davrlashtirish, tarix, ma'naviy ehtiyoj, tomosha san'ati, olovxona, madaniy meros, din, targ'ibot-tashviqot

STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT OF SOCIAL-CULTURAL ACTIVITY

Bakhromjon Bakijonovich Inatullayev
Namangan State University

Abstract: This article describes the emergence and development of socio-cultural activity, which is the mechanism of spiritual development of the society, and its historical development stages and the specific characteristics of each stage are analyzed in detail based on historical sources.

Keywords: socio-cultural activity, society, culture, periodization, history, spiritual need, performing arts, fireplace, cultural heritage, religion, propaganda

Insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri bo'lgan O'rta Osiyo zaminida istiqomat qilib kelgan ajdodlarimizning boy va bebaho madaniy merosi, necha ming yillik yuksak darajada kamolga yetgan tafakkuri ijod va zakovat mahsulidir. Unda o'zbek xalqining o'tmishi, intilishlari, orzu-umidlari, mardonavor kurashlari, hali yer bag'rida qanchadan-qancha o'z tadqiqotchilarini kutayotgan saroylar, qo'lyozmalar, kitoblar, tomosha binolari, musiqa asboblari o'z davrida inson ruhiga kuch estetik orom, quvonch bag'ishlagan. Uni erk uchun kurashga chorlagan san'at asarlari yashirinib yotibdi. O'zbek elatining madaniyati ajdodlar asrlar davomida yaratgan tub yerli madaniyat asosida tashkil topgan va rivojlangan. Jamiyat taraqqiyoti uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lsa uning har bir bosqichida inson harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Ijtimoiy madaniy faoliyat insoniyat paydo bo'lgan dastlabki davrdan boshlab insoniyat ong tafakkuridagi o'zgarishlarga mutanosib tarzda shakllanib kelishi va bugungi ijtimoiy hayotda

jamiyatning ma'naviy yangilanish mexanizmi bo'lishi bu o'z-o'zidan jamiyatning ertangi kunini belgilovchi omil hisoblanadi. Ijtimoiy madaniy faoliyatning dastlabki shakllanish jarayonlari ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. Uning vujudga kelish manbalarini O'rta Osiyo tuprog'ida yashagan qadimiy xalqlarning ijtimoiy hayotidan, milliy xususiyat, an'analardan, tabiatidan qidirishga to'g'ri keladi. Ijtimoiy madaniy faoliyat o'z shakllanish jarayonida uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Bu bosqichlarni shartli ravishda quyidagi 6 davrga bo'lib ko'rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy-madaniy faoliyatning ilk ko'rinishlarining namoyon bo'lishi;
2. O'rta Osiyo hududida dastlabki sivilizatsiyalarning vujudga kelishi va uning ijtimoiy madaniy faoliyatga ta'siri;
3. O'rta asrlarda Ijtimoiy - madaniy faoliyatning yangi shakllarining paydo bo'lishi va yuqori pog'onaga ko'tarilishi;
4. Xonliklar davrida ijtimoiy madaniy faoliyat;
5. Mustamlakachilik davrida ijtimoiy madaniy faoliyatga bo'lgan munosabat;
6. Mustaqillik yillarida ijtimoiy madaniy faoliyat sohasidagi ijobiy o'zgarishlar

Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Binobarin odamlarning bu shakllardagi o'zaro uyushuvini ilk ijtimoiylashuv ko'inishi deb ham hisoblash mumkin. Bu jarayon ibtidoiy jamoa tuzumining ilk bosqichidayoq yuz berdi.

Urug'chilik davrida esa u yuqori formada namoyon bo'ldi. Xususan, Zarautsoy (Surxondaryo), Saymalitosh (Farg'ona) tog'i g'orlaridagi sur'atlarda uyushgan odamlarning ov oldi, ovdan keyingi o'yin, ovga sig'inish o'yini va boshqalarni ko'rish mumkin. Ijtimoiy madaniy faoliyatning vujudga kelishidagi omillarni mehnat va diniy e'tiqod jarayonidagi marosimlarda ham kuzatish mumkin.

Xorazm zaminida vujudga kelgan zardushtiylik dini O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjonda keng tarqalgan. Zardushtiylik quyoshga, quyoshning yerdagi timsoli sifatida olovni ham muqaddas deb bilib, unga topinganlar, uni asrab avaylaganlar, pok saqlaganlar, unga atab uylar, ibodatxonalar qurganlar, Xuroson va Movaraunnahrda yuzlab ibodatxonalar bo'lib, ularda minglab mug'lar xizmat qilganlar.

Akademik S.P.Tolstovning olovxonalarining vazifalari xususidagi fikri inobatli: birinchidan, u ibodatxona vazifasini o'tagan; ikkinchidan, unda diniy marosimlar o'tkazilgan; uchinchidan, zardushtiylik va uning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" mazmuni bilan bog'liq ba'zi o'yinlar va tomoshalar uyushtirilgan; to'rtinchidan, u yerda yig'ilib ko'ngil ochishgan va ba'zi ijtimoiy masalalarni hal qilishgan. Boshqacha aytganda olovxonalar ham ibodatxona, ham tomoshagoh, ham o'ziga xos uyushma markazi vazifasini bajargan. Tolstov quyoshdan olov, olovdan olov uyi, olov uyidan mehmonxona, mehmonxonadan choyxona kelib chiqqanligini asosli dalillar bilan isbotlab bergan. Olov uylari, mehmonxona va choyxonalarini u erkak uylari deb yozadi.

Markaziy osiyoda vujudga kelgan ilk davlat birlashmalari qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari vujudga kelib, hukmronlik qilgan davrlarida ham ijtimoiy madaniy jarayonlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Ayrim Ovrupo tarixchilari Yunon - Makedon zobitlarining madaniy ta'siriga katta baho beradilar. Biroq madaniyatning tarqalishi (garchi u har qanday yuksak darajada bo'lmasin) yuz minglab aholini qirg'in qilish hisobiga erishilmasligi lozim. Boz ustiga mahalliy aholini o'ziga xos madaniyatini yakson qilinishini oqlab bo'lmaydi³.

Arablar istilosigacha bo'lgan davrda, ya'ni eftalitlar va turk xoqonligi hukmronligi davrida ijtimoiy madaniy hayotda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar Bolaliktepa, Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, Quva va boshqa shaharlarda qurilgan turli qasrlar, saroylar, qal'alar, qo'rg'onlar, ko'shklar, ibodatxonalar, otashkalar va ularni bezagan rasmlarda haykallarda sanamlarda, zarb etilgan tangalarda o'z aksini topgan. Turk xoqonligi davrida musiqa, raqs, qo'shiqchilik san'atlari, dorbozlik, masharabozlik, qo'g'irchoqbozlik tomoshalari keng tarqalgan. Markaziy Osiyolik san'at axli bilan Xitoylik san'at axli o'rtasida doimiy aloqalar mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyolik san'atkorlar Xitoyda bo'ladigan tantana va marosimlarning doimiy ishtirokchisi bo'lgan⁴. Arab istilosi oqibatida VIII asrda yurtimizga islom dini kirib keldi. Buning oqibatida ijtimoiy madaniyat faoliyatda tub o'zgarishlar yuz berdi. Avvalgi madaniyat namunalari inkor etildi. Arab tili, musulmon madaniyati keng targ'ib qilindi. Shunga qaramay islom ilm fanga, ma'rifatga keng rag'bat ko'rsatdi. Insonni ijtimoiy faollikka musulmon jamoalariga, xatto nomusulmon qavmlarga hurmat bilan qarashga, ma'rifatli bo'lishga dav'at qildi.

Islom insonni quloq bilan eshitib qabul qiladigan - tovush, so'z, musiqa, g'azal, bitiklar va ko'z bilan ko'rish orqali xis-tuyg'ularni qo'zg'ab, kishi ongiga ta'sir o'tkazilgan tilsimiy tizimni tomoshaga aylantira oldi. Oqibatda, boshqacha bo'lgan tomosha turlaridagi o'yin, nag'ma, qiliqqa barham berdi. Tomoshani Islom aqidalarini ulug'laydigan, uni falsafasini ochadigan va mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladigan tadbirga aylantirdi. Ilgarigi ibodatxonalar o'rniga masjidlar qad rostladi. Bu davrda ko'plab madrasalar, minoralar, maqbaralar bunyod etildi.

O'zbek davlatchiligi tarixida IX-XII va XIV-XV asrlar uyg'onish davri yoki "Oltin davr" sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davrda yurtimizdan yetishib chiqqan qomusiy olimlar islom dini ravnaqiga bebaho hissa qo'shgan buyuk hadisshunoslar faoliyat ko'rsatdilar. Ular nafaqat Movarounnahr yoki Xuroson, balki butun dunyo ilm-fani taraqqiyotiga ham barakali hissa qo'shdilar. Uyg'onishning ikkinchi davri, jumladan, ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixida ham temuriylar davri madaniyati alohida o'rin tutadi. "Temur har bir muvaffaqiyatini (Triumf)ni, har bir sevinchli voqeani bir me'morlik asarini bunyod etish bilan nishonlashga axd qildi."

U qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o'ljasi - shu o'lkaning rassomlari, mohir hunarmand ustalari hisoblangan. Temur va temuriylar davrida ko'plab masjidlar,

madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroy, shinam bog'lar, obod guzarlar, sardobalar barpo etildi. Ispaniya elchisi Ryui Ganzales de Klavixoning temuriylar davri madaniyati va san'atiga oid ma'lumotlari qimmatlidir. Temuriylar davrida xalq sayllari va tomoshalarda tashkil etilgan teatrlashtirilgan ko'ngilochar tomoshalarda turli kasblarga ega bo'lgan xalq orasidan yetishib chiqqan ijrochilar mahoratini zo'r zavq - shavq bilan tariflaydi. Konigulda o'tkazilgan tadbirda tikilgan 10 - 15 ming chodirlarni chinakam san'at asari deya e'tirof etadi.

XVI-XIX - asrning birinchi yarmida ya'ni - O'rta osiyoda uch xonlik hukmronligi davrida ijtimoiy madaniy hayot va mafkurada Islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egalladi. X-XII-asrlardan hayotga kirib kela boshlagan so'fiylik XV - asrda yuksak cho'qqiga ko'tarilib toki XX - asrdagi siyosiy to'lqin va larzalar davriga qadar asosiy o'rin tutdi. O'rta osiyo madaniy taraqqiyotda XIV-XV - asrda o'zining klassik xususiyati bilan dunyoda eng yetakchi o'rinda turgan bo'lsa, XVII-XIX - asrlarda jahon sivilizatsiyasi jarayonidan tobora chetda qola boshladi. Shunga qaramay bu davrda ham ijtimoiy madaniy hayot avvalgi darajadan pastroq bo'lsada o'ziga xos tarzda taraqqiy etdi.

Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi va mustamlakachilik tizimining o'rnatilishi ijtimoiy madaniy faoliyatga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Buning sabablari esa Tukiston general gubernatorligi va yangi boshqaruv tizimining tashkil etilishi, ruslashtirish siyosatining avj oldirilishi, musulmon ruhoniylari vaqf mulklariga, mavjud maktab va madrasalarga salbiy munosabatda bo'linishi, rus tuzem maktablarining joriy qilinishi, o'lka tabiiy boyliklarini o'zlashtirish maqsadida O'rta Osiyo tabiati geografik xaritasi yer osti va yer usti boyliklarini o'rganish borasidagi rus olimlarining ilmiy izlanishlari, madaniy-ma'rifiy jarayonlarga mustamlakachilik nuqtai nazaridan e'tibor qaratilishida edi. Garchand shunday bo'lsada bu davrda Turkiston ommaviy kutubxonasi, muzeyi, turli jamiyatlar tashkil topdi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat evolyusiyasida eng ko'zga ko'ringan davrlaridan biri bu Jadidchilik harakati namoyondalari va ularning ijtimoiy-madaniy sohadagi islohiy qarashlari bilan bog'liq. Turkistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon kabi shaharlarida «Taraqqiyparvarlar», «Padarkushchilar», «Yosh o'zbeklar», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» nomlari bilan el-yurt orasida mashhur bo'lib ketgan harakatlar faoliyat ko'rsatdi. Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalari: Mahudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat. Cho'lpon, Ibrat va boshqalar tashabbusi bilan milliy tildagi gazeta va jurnallar nashr etildi, yangi maktablar tashkil etildi, teatr san'atida yangi davr boshlandi.

Bolsheviklarning «madaniy qurilish» strategiyasi o'z oldiga Turkiston xalqlari ongidan «eskilik sarqitlari»ni siqib chiqarish va uning o'rniga «yangi madaniyat»ni singdirish baxonasida asosan «kommunistik tarbiya»ni amalga oshirishni maqsad qilib

qoʻygan edi. Shuning uchun Turkiston kompartiyasi omma orasida kommunistik tashviqot va targʻibotni avj oldirishga katta ahamiyat berdi. Turkiston KP VIII sʻezdi (1924y. may) qarorida: «Turkiston kommunistik partiyasi madaniy-tarbiyaviy, propaganda ishlarini xalq ommasi ongiga kommunizm prinsiplarini, marksizm-leninizm nazariyasini singdirish, aniq shaklangan tashkilot tuzish, hamda uni partiya programmasi va taktikasining elementlari, tashkiliy prinsiplari va asoslari bilan tanishtirish maqsadini koʻzlab olib borishi zarur», deb taʼkidlandi⁶.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Turkistonda tashkil qilingan barcha madaniy-oqartuv muassasalarining ijtimoiy oʻrni va roli partiya VIII sʻyezdi qarori asosida belgilab berildi va bu muassasalar zimmasiga dunyoning bironta mamlakatida boʻlmagan vazifa yuklandi. Natijada, madaniy-oqartuv muassasalari keng xalq ommasini siyosiy-gʻoyaviy jihatdan tarbiyalash, ularda bolshevistik aqidalarga nisbatan ishonchni shakllantirish va shu yoʻl bilan xukmron bolsheviklarning siyosiy-gʻoyaviy mavqeini mustaxkamlash ishiga safarbar qilindi.

Shuning uchun ham madaniy-oqartuv muassasalari faoliyatida siyosiy-gʻoyaviy, bolsheviklarga xos gegemonchilik xususiyatiga ega boʻlgan ish shakllari ustivor ahamiyat kasb etdi. XX asrning 20-yillar boshlarida tashkil etilgan «Qizil Sharq» tashviqot poezdi, «Qizil karvon» va «Qizil arava» tashviqot guruhlari, «Tashviqot poyezdlari», shuningdek, tashkil etilayotgan agit-punktlar, koʻrgazmali tashviqotlar, varaqalar, murojaatnomalar, yodnomalar, siyosiy plakatlar, «jonli gazetalar», badiiy-siyosiy publitsistik, satirik chiqishlar bularning barchasidan koʻzlangan maqsad madaniy-oqartuv ishlari orqali sovet xukumati xayrixoxlarini koʻpaytirish, bolsheviklarning afsonaviy gʻoyalariga ishontirish edi.

Madaniy-oqartuv muassasalari oʻz faoliyatlarida turli xil noanʼanaviy, maxalliy xalq ruhiyatiga mos kelmaydigan tadbirlar ham oʻtkazar edilar. Masalan, «yangicha turmush» rukni ostida oʻtkazilgan qator tadbirlarda yevropacha turmush targʻib qilinib, oʻzbekona urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va diniy marosimlar «xurofot» deb targʻib qilindi. Koʻpgina korxonalarda va qishloqlarda «Qizil burchaklar» tashkil qilindi. Xar bir nomga «Qizil» soʻzini ishlatish bilan madaniyat sohalari dastlabki kundanoq mafkura izmiga olindi, «Qizil»ning mohiyati va qudratini xalq ongiga muntazam singdirib borishga harakat qilindi.

Turkistonda alohida xotin-qizlar klublarini tashkil qilishga keng eʼtibor berildi. Xotin-qizlar orasida targʻibot va tashviqot ishlarini asosan yevropalik rusiyzabon ayollar olib borardi. Bu bilan ular mahalliy xotin-qizlar orasida yevropacha kiyinishni, yevropacha yurish-turishni va muomalarni jonli ravishda namoyish qilishar va shu yoʻl bilan ular yangicha madaniyatni yoyishga harakat qilardilar.

XX asrning 20-yillar oxirida partiya mafkura maydoniga yana bir gʻoyani— madaniy merosni inkor etish gʻoyasini tashladi, bu aslida «madaniy inqilob»ning asosiy maqsadlaridan biri edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda g'oyaviy siyosiy tazyiqlar, ckeklashlar yanada avj ola boshladi, markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan rivojlangan sotsializm deb nomlangan hayoliy va noilmiy aqidalar, yagona sovet madaniyati yaratilganligini e'tirof etdi.

Mustaqillik sharoitida ma'naviy islohotlar zamirida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati tubdan o'zgardi, yangi mazmun kashf etdi, shaklan kamol topdi. Bu o'zgarishlar istiqlol bergan imkoniyatlar asosida sodir bo'ldi. Zero, bu sohaning yangilanishi tarixiy zarurat edi. Mustaqillik sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalar xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an'analarini tiklash, xalq ijodini ravnaq toptirish, yangi milliy mafkurani targ'ib etish maskaniga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi asrlar mobaynida taraqqiy etgan xalqimizning ko'p ming yillik ijtimoiy turmush tarzini, madaniyatini qamrab olgan o'ziga xos jarayondir. Zero, bugungi kunda yurtimizda keng qamrovli amalga oshirilayotgan islohotlarni hayotga tadbiq etishda ijtimoiy madaniy faoliyat sohasi o'ziga xos o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni - Toshkent: Sharq, 2001. - B 100.
2. Bekmurodov M. Ijtimoiy-madaniy faoliyat evolyutsiyasi//”Ijtimoiy-madaniy faoliyatning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika imiy maqolalar to'plami.- Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiyot uyi, 2011. -B. 5.
3. O'zbekiston xalqlari tarixi. Asqarov A. tahriri ostida - Toshkent: Fan, 1992. - B. 34.
4. Qorabayev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. - Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2000. - B. 65 - 66.
5. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi.-Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. - B 52.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida - Toshkent : Sharq, 2000. - B. 276.